

JAMOATCHILIK MUHOKAMALARI INSTITUTI TIZIMI, SHAKLLARI VA FAOLIYAT YO'NALISHLARI

*Abdusamat Turg'unboyev, o'qituvchi,
Farg'onadavlat universiteti,
O'zbekiston, Farg'onash.*

Annotatsiya: Jamoatchilik muhokamasi institutiga berilgan yuqoridagi ta'rifdan ko'rinish turibdiki, bu institutning faoliyatini tashkil qilish, harakat mexanizmini ishlab chiqish davlat va jamiyat boshqaruvida ob'ektiv siyosiy zaruriy jarayon bo'lib, ilmiy-amaliy usullar va metodlar yordamida amalga oshiriladi. Jamoatchilik muhokamalar instituti faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish usullari hamda harakat mexanizmlari quyidagi asosiy komponentlardan iborat bo'ladi.

Kalit so'zlar: jamiyat, jamoatchilik instituti, ijtimoiy himoya, davlat, oila, huquqiy madaniyat.

KIRISH:

Albatta, jamoatchilik muhokamalari instituti faoliyatini tashkil etish bizdan katta bilim va mahorat talab etadi. Bu muhokama jarayonlarini tashkil etish bo'yicha ilg'or demokratik davlatlarning tajribalarini chuqur o'rganish, o'zimizning milliy va an'anaviy ish usullarimizni qayta tiklash masalalari bugun barcha jamiyatshunos olimlar oldiga yangi – yangi vazifalar qo'ymoqda.

ASOSIY QISM

Zero, fuqarolarning bu siyosiy huquqlarini ta'minlashdan ko'zlangan asosiy maqsad - shaxsiy manfaatlari ustivorligini ta'minlash yo'li bilan jamiyatda sog'lom ijtimoiy fikr shakllantirish, ularga xizmat ko'rsatuvchi davlat hokimiyati boshqaruvida erkin ishtirokini qonuniy asoslashdir.

Tashkil etilish tizimi va harakat mexanizmiga ko'ra jamoatchilik muxokamalari jamoatchilik fikrini eshitishga xizmat qiladi. Boshqacha aytganda, uning harakat mexanizmi jamoatchilik fikri tushunchasi bilan uzviy bog'liqdir.

Erkin individual usul u yoki bu dolzarb masalada jamiyatdagi turli toifadagi kishilarni erkin o'zaro fikr almashishi, masalaga shaxsiy nuqtai nazaridan turib baho berishi, o'zining munosabatini aniq bildirishi bilan xarakterlanadi. Bu usul odatda kishilar tomonidan "kuxnya"dagi ijtimoiy fikr ya'ni oshxonada shaxslararo o'zaro suhbat va munozaralarda yaqqol ko'zga tashalanadi.



Demak, shaxs o'zida ommaning manfaatlari mushtarakligi bilan bog'liq bo'lган ijtimoiy ong shaklidagi alohida qarashlarini, ijtimoiy hayotdagi voqeа yoki hodisalarga nisbatan munosabati, pozitsiyasini ijtimoiy fikr tarzida ifodalaydi. Bu shaxsiy ijtimoiy fikr jamoatchilik muhokamalari jarayonida o'zgarishi yoki aksincha yanada mustahkamlanishi mumkin.

Jamoatchilik fikri shakllantirishning aniq maqsadga yo'naltirilgan asosiy usuli maxsus institutlar yordamida masalani muhokamaga qo'yish, uni maqsad va vazifalarini oldindan belgilash, muhokama jarayonini boshqarish jarayonlariga bog'liq. Bu usul jamoaviy tarzda tashkil etilgan konferentsiya, seminar – trening, ijtimoiy-siyosiy tadbirlar va OAVlari orqali maxsus beriladigan dolzarb masalalar muhokamasi jarayonlarida amalga oshadi.

Demak, jamoatchilik muhokamalari instituti - davlat, nodavlat notijorat tashkilotlari va ilmiy markazlar yordamida jamiyatdagi turli sub'yektlar (shaxs, mehnat jamoalari, sotsial guruhlar, sinflar va keng omma) ijtimoiy ongida umumxalq va davlat ahamiyatiga ega bo'lган barcha dolzarb masalalar bo'yicha erkin muhokama jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatish hamda sog'lom ijtimoiy fikr shakllantirish tizimidir.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Jamoatchilik muhokamalarini tashkil etishda avvalo, uning ob'yekti va sub'ektlarini aniqlab olish talab etiladi. Uning asosiy ob'yektlari sifatida: fuqaro, oila, mahalla, mehnat jamoasi, qishloq, tuman, shaharcha, shahar, viloyat, respublika hududi umumiy yoki alohida auditoriya o'rnida tanlanishi mumkin. Jamoatchilik muhokamalari uchun auditoriya ob'yekti tanlanayotganda o'rganilayotgan mavzuning ko'lami va ahamiyati asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Jamoatchilik muhokamalari auditoriyasi sub'ektlari sifatida: shaxs, sotsial guruhlar, tabaqalar, sinflar, millat va elatlar, turli kasb egalari, yoshi, jinsi, ma'lumoti, doimiy yashash manzili, turmush tarziga ko'ra o'zaro farqlanuvchi kishilar guruhlarini ko'rsatish mumkin. Bu sub'ektlarni har biri qo'yilayotgan masalaning ko'lami va ahamiyatidan kelib chiqib tadqiqot uchun alohida yoki umumiy auditoriyani tashkil etishi mumkin.

Jamoatchilik muhokamalari instituti faoliyatini tashkiliy tizimi sifatida: davlat organlari va xukumat tashkilotlari, NNT va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari, ilmiy markazlar, ta'lim muassasalari va jamoatchilik fikrini o'rganuvchi xalqaro tashkilotlarni ko'rsatish mumkin. Ularning har biri jamoatchilik muhokamalari instituti faoliyatini o'ziga xos yo'nalishlari, tadqiqot metod va usullarini tanlashga yondoshishi bilan farqlanadi. Shuningdek, ayni payitda tadqiqot o'tkazish jarayonlarida bir-birini to'ldiradi.

Jamoatchilik muhokamalari instituti faoliyatida sotsiologiyada keng qo'llaniladigan tadqiqot usul va metodlaridan: so'roqlash, intervyu, anketa, suhbat, uchrashuv hamda ommaviy tadbir tashkil qilishdan keng foydalilanadi. O'rganish usuli va metodini tanlashda qo'yilayotgan mavzuning xarakteri, dolzarbliji, amaliy ahamiyati va istiqboli hal qiluvchi rol o'ynaydi. Tadqiqot loyihasida o'rganish metodlari aniq belgilab olinadi va unga qat'iy amal qilinadi.

Jamoatchilik muhokamalari instituti faoliyatini amalga oshirishni asosiy vositalari: OAV (bosmaviy axborot vositalari, radio va televideniya, Internet), maktublar, ilmiy-amaliy konferentsiyalar, seminar-treninglar, madaniy-ma'rifiy va siyosiy ommaviy tadbirlar, uchrashuvlar va suhbatlar tashkil qilishdan iborat. Bu vositalardan o'z o'rnida samarali foydalanish ijtimoiy fikrni tizimli o'rganishda katta imkoniyatlar yaratadi.

Jamoatchilik muhokamalari instituti faoliyati harakat mexanizmini quyidagi sxemada yaqqol tasavvur qilish mumkin: "mavzu" – "muhokama" – "munosabat" – "fikr" – "tanqid" – "bahs" – "taklif" – "xulosa" – "qaror".

Bu sxemani tashkil etuvchi har bir komponent umumiy jarayonni tashkil bo'lishida o'ziga xos rol o'ynaydi. Jumladan, mavzu xarakteriga ko'ra ochiq yoki yopiq holda bo'lishi mumkin. Bu kundalik



axborot va ma'lumotlarning qanday usullar va yo'llar bilan tarqalishiga bog'liq. Odatda mavzuning yopiq tarzda muhokama etilishiga u yoki bu masalani ma'lum bir muddat ommadan yashirib turilishi, ma'lumotni norasmiy chiqib ketishi, noto'g'ri axborot tarqatilishi sabab bo'ladi.

Muhokama jarayoni ham mavzuning xarakteridan kelib chiqib ochiq yoki yopiq usulda boshlanishi mumkin. Aksariyat holatlarda yashirin boshlangan muhokama jarayoni asta-sekin pishib etilib, "yoriladi" va ijtimoiy fikrda katta shov-shuvlarga sabab bo'ladi. Ochiq muhokama jarayoni u yoki bu institut tomonidan aniq maqsadni ko'zlab, maxsus dastur va reja asosida tashkil etiladi. Muhokamani tashkil etishda auditoriyani tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Jamoatchilik muhokamasiga ishtirokchilarning munosabati muhim komponent hisoblanadi. Munosabat xarakteriga ko'ra aktiv va passiv usulda yuz berishi mumkin. Aktiv usul muhokama ishtirokchilarining individual hayotiy manfaatlariga mavzuning daxildorlik darajasi bilan o'lchanadi. Passiv usul esa kishilarni muhokamada rasmiyatchilik uchungina ishtirok etishlarini bildiradi.

Fikr ijtimoiy muhokamalar jarayonining eng muhim va natijani belgilab beruvchi qismi hisoblanadi. Fikrlar dastavval individual xarakter kasb etadi. Ayni bir shaxs tomonidan boshlab berilgan fikr jamoatchilik e'tiboriga tushgandan boshlab ijtimoiy xarakterga ega bo'la boshlaydi. Fikrlar xarakter va mazmuniga ko'ra turli usullarda bo'lishi mumkin. Masalan, axborotlar ta'sirida, tahlil va mushohada orqali, maslahat berish yoki olish uchun, ikkilanuvchi yoki qat'iy xulosaga kelish orqali bildiriladigan fikrlarni ko'rsatish mumkin. Shu bilan birga individual yoki ijtimoiy fikrni umumiy ma'noda zararli yoki foydali, asoslangan yoki asoslanmagan, ijobiy yoki salbiy ko'rinishlarda ham ishlatish mumkin.

Ijtimoiy muhokamalar institutining asosiy vazifasi yuqoridaq turli-tuman shakl va mazmun kasb etuvchi individual fikrlarni yuzaga chiqishiga qulay shart-sharoit yaratib berish orqali ijtimoiy fikrni aniq maqsadga yo'naltirilgan pozitiv harakatini tashkil etishdir. Zero, ijtimoiy fikrlar qizg'in muhokamalar natijasida o'z o'zidan moddiylashadi, g'oyaviy-siyosiy kuchga aylanadi.

Ijtimoiy muhokamalar instituti faoliyat mexanizmida "tanqid" komponentining roli ham juda katta. Gap shundaki, muhokamalarda shaxs tomonidan bildirilayotgan har qanday fikrlar ham mazmuniga ko'ra to'liq asoslangan bo'lishi qiyin. Aksincha, individual fikrlar dastlab albatta, opponentlar tomonidan "yumshoq" yoki "qattiq" tanqid ostiga olinadi. Asoslangan tanqid fikrni ijtimoiylashuvini asosiy kurash yo'lidir.

Tanqidiy fikrlar maqsad va vazifalariga ko'ra turli shakllarda bildiriladi. Masalan, do'stona va samimiy, keskin va g'arazli, maxsus va shunchaki, asoslangan va asoslanmagan, foydali va foydasiz, kerakli va keraksiz, o'rinni va o'rinsiz va boshqalar. Ilmiy adabiyotlarda o'zaro tanqid va o'z o'zini tanqid jarayoni ijobiy natijaga erishishda eng muhim mexanizm sifatida taklif etiladi. Ijtimoiy fikrlarni shakllanishi va rivojlanishida jamiyatdagi sog'lom tanqidiy muhit katta rol o'ynaydi.

Bahs-munozara jarayoni jamoatchilik muhokamalarini tashkil etish va muhim xulosalar chiqarishda asosiy harakat mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Bahs-munozara fikrlar to'qnashuvi va haqiqatning yuzaga chiqishiga yaqindan yordam beradi. Bu jarayonlarning yuzaga kelishi va rivojlanishini oldindan prognozlashtirish juda qiyin vazifadir. Shu bois jamoatchilik muhokamalarini tashkil etishda oldindan bahs-munozaralarga puxta tayyorgarlik ko'rish talab etiladi. Bahs-munozara shakllari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin. Masalan, o'zaro muloqotga kirishish orqali bahslashish, shartli ravishda guruhlarga bo'lingan holda munozara olib borish, ilmiy ishlar va nuq tai nazar, intervyu berish va ochiq muloqotlarda ishtirok etish va boshqalar.

Jamoatchilik muhokamalari tashkil etish va o'tkazishdan qo'langan asosiy maqsad muhokam etilayotgan dolzarb masalalarning samarali echimlari bo'yicha har tomonlama ilmiy-amaliy asoslangan takliflar bankini yaratishdir. Takliflar mavzu bo'yicha o'rtaga tashlangan turli fikr-mulohazalarni umumlashtirish asosida shakllanadi. Bu jarayonda eng muhim masala takliflarning konstruktivligi hamda ijro uchun ko'pchilik tomonidan ma'qullanishidir. Takliflar xarakteriga ko'ra turlicha bo'lishi



mumkin. Masalan, hozir va keljakka mo'ljallangan tavsiyalar, ilmiy asoslangan va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan, ijobiy va salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin bo'lgan va boshqalar.

Jamoatchilik muhokamalarida konstruktiv takliflarning roli qanchalik muhim va zarur ekanligini tushunib olish masalaning to'g'ri echimini topishda asosiy omillaridan biridir. Boshqacha aytganda ular dolzarb masalalarni hal qilishga qaratilgan yangi loyihalarni ishlab chiqish va ijrosini ta'minlashga asos bo'ladi. Bunga aniq misol tariqasida mamlakatimiz parlamenti tomonidan qabul qilinayotgan har bir yangi qonunlar loyihasi muhokamalari bo'yicha shakllanayotgan minglab yangi takliflarni qonunlarni takomillashtirishda tutayotgan katta rolini ko'rsatish mumkin.

Jamoatchilik muhokamalari institutining samaradorligi xulosa jarayonida o'z ifodasini topadi. Xulosa muhokama jarayonining eng muhim mexanizmi sifatida bildirilagan fikrlarni umumlashtirish va ijro uchun zarur bo'lgan masalalarni aniq ko'rsatib beradi, ularni amalga oshiruvchi kuchlar va mudatlarni belgilaydi. Xulosa muhokama yakunida qabul qilinadigan qarorlarning shakllanishiga asos bo'ladi. SHu ma'noda xulosalarni ham shakl va mazmun jihatdan turli-tuman bo'lishi mumkinligini ta'kidlab o'tish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Jumladan, aniq va umumiylar xulosa, takliflarga asoslangan xulosa, tomonlarni kelishtirishga xizmat qiluvchi xulosa, yangi loyihalar ishlab chiqarishga qaratilgan xulosa, maqsad va vazifalarni belgilab beruvchi xulosa, kamchiliklarni bartaraf etish yo'llarini ko'rsatuvchi xulosa, jamoatchilik muhokamalariga yakuniy baho beruvchi xulosa va boshqalar.

Jamoatchilik muhokamalarining harakat mexanizimini yakunlovchi komponenti - qabul qilinadigan muhim qarorlardan iboratdir. Qaror qabul qilish jarayoni juda qizg'in va bahs talab bo'lishi bilan katta ahamiyat kasb etadi. Masalaning nozikligi va murakkabligi shundaki, munozaralarda ishtirok etgan har bir shaxs yoki guruhlar o'z fikrlari, takliflarini qabul qilinayotgan qarorga kirishini istaydi va talab qiladi. Aks holda jamoatchilik muhokamalarining samaradorligini ta'minlab bo'lmaydi. Ayni bir vaqtda yig'ilish qarorida bildirilgan barcha fikr va takliflarning barchasini qarorda jamlab olish qiyin. Shu bois muhokamlar so'ngida qaror loyihasi tayyorlanib yana bir bor ishtirokchilar muhokamasiga kiritiladi hamda yangi takliflar bilan, qo'shimchalar bilan ijro uchun qabul qilinadi.

XULOSA

Jamoatchilik muhokamalarining yakuniy qarorlarining ijrosi ma'muriy tashkilotlarda qabul qilinadigan qarorlardan farq qilib jamoatchilik nazorati yordamida amalga oshiriladi. Bu jarayon juda muhim. Chunki, jamoatchilik muhokamalarida qabul qilingan qarorlar oshkoraliq va erkinlik printsiplariga tayanib, keng omma faolligida amalga oshiriladi, ixtiyorilik va fuqarolik mas'uliyati asosiy kuch sifatida namoyon bo'ladi.

Adabiyotlar:

1. Mamajonova, D. (2023). WAYS TO COMBAT CRIME AND IMPROVE THE CRIME PREVENTION SYSTEM. *IMRAS*, 6(7), 227-236.
2. Мамажонова, Д. (2022). КОНСТИТУЦИЯВИЙ ИСЛОҲОТЛАР-ХАЛҚ МАНФААТИНИНГ АСОСИЙ МЕЗОНИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10), 688-693.
3. Karimov, U. (2023). INTERPRETATION AND STUDY OF THE CONCEPT OF ENTREPRENEURSHIP BY CLASSICS OF WORLD SOCIOLOGY. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 220-225.
4. Teshaboev, M., Karimov, U., & Karimova, G. (2023). SCIENTIFIC AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF APPLIED PHILOSOPHY. *Oriental Journal of Social Sciences*, 3(05), 69-80.



5. Закирова, Д. (2021). Millatlararo umumbashariy manfaatlar va qadriyatlar. *Общество и инновации*, 2(10/S), 227-233.
6. Zakirova, D. (2023). SPEECH CULTURE IS THE MAIN CRITERION OF EDUCATION. *European Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 16, 389-395.
7. Закирова, Д. (2021). EDUCATION FOR THE CHILD IN A PANDEMIC CONDITION. *Экономика и социум*, (4-1), 909-912.
8. Абдулазизова, Н. А., & Закирова, Д. С. (2016). МАСОФАЛИ ЎҚИТИШНИНГ УЗЛИКИЗ ТАЪЛИМ ТИЗИМИДАГИ АХАМИЯТИ. *Ученый XXI века*, 42.
9. Закирова, Д., & Нишонова, С. (2022). Ta'limni modernizatsiyalash sharoitida talabalarda tolerantlik madaniyatini shakllantirish asoslari. *Общество и инновации*, 3(11/S), 74-81.
10. Abdullayeva, M. T., & Xabibullayeva, M. (2022). EKOLOGIK TA'LIM TARBIYA YOSHLAR NIGOHIDA. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 2(Special Issue 2), 180-185.
11. Abdullayeva, M. (2022). Kuzgi bug 'doyning fotosintez mahsuldorligiga ko 'chat va o 'g 'itlar miqdorini ta'siri. *Ijodkor o'qituvchi*, 2(22), 334-340.
12. Usmonov, M. A. J. O. S. (2022). FOTOSINTEZ MAXSULDORLIGIGA YEKISH MEYORI VA MA'DAN O 'G 'ITLARINING TA'SIRI. *IJODKOR O'QITUVCHI*, 2(20), 170-174.
13. Abdullayeva, M. T. L., & Maqsudova, G. M. (2021). Ekologik Ta'lif Va Tarbiyada Xorijiy Tajriba. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(10), 159-165.
14. Zokirova, S. X., Xalmatova, S. M., Abdullayeva, M. T., & Axmedova, D. M. (2020). VLIYANIYE PITATELNIX ELEMENTOV ISKUSSTVENNOGO I YESTESTVENNOGO EKRANOV V PESKE NA ROST, RAZVITIYE XLOPCHATNIKA. *Universum: ximiya i biologiya*, (12-1 (78)).
15. Madina, G., Ziyoda, M., Mokhlaroy, E., & Shakhlo, I. (2023). IMPORTANCE OF RATIONAL USE OF THE PLANT WORLD. *Miasto Przyszłości*, 42, 688-692.
16. Gaybullayeva, M. (2023). TAJRIBA DALASIDA AMALGA OSHIRILGAN AGROTEXNIK TADBIRLARNI NO'XAT UNIB CHIQISHIDAGI AHAMIYATI. *Models and methods in modern science*, 2(14), 70-75.
17. Гайбуллаева, М. Ф., Баратова, Ф., & Норкузиева, Т. (2019). Общие проблемы экологии. *Молодой ученый*, (28), 203-205.
18. Nazarov, M., & Gayullaeva, M. (2020). Influencace of Ecological Factors on Photosynthesis Processes In Legumes. *Agro Science Journal*.
19. Gayullaeva, M., Usmonov, S., & Akramov, A. (2023). FOREST RESOURCES OF UZBEKISTAN. *Наука и инновация*, 1(7), 46-49.
20. Абдурахманова, М. М., & Тургунбоев, А. Ф. (2022). Формирование Рынка Труда Как Фактор Развития Народного Хозяйства. *Central Asian Journal of Theoretical and Applied Science*, 3(8), 1-6.
21. Абдурахманова, М., Хонкелдиева, К., & Тургунбоев, А. (2022). ФОРМИРОВАНИЕ ОБЩЕСТВЕННОГО МНЕНИЯ НАСЕЛЕНИЯ КАК УСЛОВИЕ ЭФФЕКТИВНОЙ РЕАЛИЗАЦИИ ЦЕЛЕВЫХ КОМПЛЕКСНЫХ ПРОГРАММ В РЕГИОНЕ. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMUY TADQIQOTLAR JURNALI*, 1(12), 878-882.



22. Абдурахмонова, М. М., & Тургунбоев, А. Ф. (2022). БОШЛАНГИЧ ТАЪЛИМ-ЖАМИЯТ ХАЁТИНИНГ БОШ БЎФИНИ СИФАТИДА. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(11), 704-709.
23. Абдурахмонова, М. М., & Турғунбоев, А. Ф. (2022). ЖАМОАТЧИЛИК ФИКРИНИНГ КЕЛИБ ЧИҚИШ ОМИЛЛАРИ, ШАКЛЛАРИ ВА ФАОЛИЯТ ЙЎНАЛИШЛАРИ. *Research Focus*, 1(1), 324-326.
24. Abduraxmonova, M. M., & Turgunboyev, A. F. (2023). AHOLIGA SIFATLI IJTIMOIY XIZMATLAR KO 'RSATISHDA JAMOATCHILIK FIKRIGA TAYANISH SAMARADORLIGI. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(22), 192-200.
25. Дадабоева, Ж. (2023). КОНСТИТУЦИОННО-ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ СЕМЬИ. *Вестник Ошского государственного университета. Право*, (1 (2)), 37-42.
26. Dadaboeva, J. (2022). THE BASICS OF CIVIL LEGAL REGULATION OF SEPARATION FROM MARRIAGE. *Research Focus*, 1(4), 253-261.
27. Dadaboyeva, J. A., & Mamadaliyeva, M. (2023). ODAM SAVDOSI YOXUD "ZAMONAVIY QULLIK" KA QARSHI KURASHISH MUAMMOLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(2), 807-812.
28. Dadaboeva, D. A. (2021). Civil-legal regulation of educational services. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(8), 448-453.
29. Dadaboeva, J. (2023). STATE PROTECTION OF FAMILY, FATHERHOOD, MOTHERHOOD, CHILDHOOD. *Science and innovation*, 2(C2), 29-33.
30. Kurbon, S. (2023). SOCIO-SPIRITUAL AND MORAL ASPECTS OF THE FORMATION OF CIVIL POSITIVITY IN YOUNG PEOPLE. *PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS*, 2(23), 91-95.
31. Сураймонов, Қ. (2022). ЁШЛАР ИНТЕЛЛЕКТУАЛ МАДАНИЯТИ ШАКЛЛАНИШИГА ОБЪЕКТИВ ВА СУБЪЕКТИВ ОМИЛЛАР ТАЪСИРИ. *Science and innovation*, 1(B3), 688-696.
32. Karimov, U. (2023). INTERPRETATION AND STUDY OF THE CONCEPT OF ENTREPRENEURSHIP BY CLASSICS OF WORLD SOCIOLOGY. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 220-225.
33. Sadigjonovich, G. B., & Umaralievich, K. U. (2022). Socio-Philosophical Aspects of the Orientation of Young People to Entrepreneurial Activity. *Research Focus*, 1(4), 359-363.
34. Karimova, G. Y. (2021). Qualitative Ideological Method of Struggle Against Moral-Spiritual Threats. *Economy and Society*, 6-1.
35. Karimova, G. (2022). Forms of organization of educational activities in history in higher educational institutions. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 11(6), 127-132.
36. Karimova, G., & Komilaxon, M. (2023). Ekologiyada Muhit Va Omillar Tushunchasi, Ularning Mohiyati, Evolyutsion Jarayonda Tutgan O'rni. *Miasto Przyszlosci*, 43, 374-381.
37. Каримова, Г., Баҳординова, Ф., & Соибжонова, С. (2021). ОИЛА СОЦИОЛОГИЯСИДА ОИЛАДАГИ ИЖТИМОЙ МУҲИТНИНГ ЎРГАНИЛИШИ. *Интернаука*, (10-3), 44-45.
38. Sharipova, K. (2023). ORPHANS AND CHILDREN DEPRIVED OF PARENTAL CARE STUDY AT SCHOOL PROBLEMS IN OBTAINING A QUALITY EDUCATION AND UPBRINGING.
39. Sharipova, K. (2023). MILLATLARARO TOTUVLIK VA DINIY BAG 'RIKENGLIK O 'ZBEK XALQINING YUKSAK QADRIYATIDIR. *Talqin va tadqiqotlar*, 1(18).



40. Sharipova, K. (2023). YETIM VA OTA-ONA QAROMOG 'ISIZ QOLGAN BOLALARНИ IJTIMOIY HIMYOYALASHDA XALQARO RIVOJLANGAN DAVLATLAR TAJRIBASI. *Academic research in educational sciences*, 4(Periodical Collection 7), 177-183.
41. Шарипова, К. (2023). СЕМЬЯ, МАХАЛЛЯ, ШКОЛЬНОЕ СОТРУДНИЧЕСТВО В ВОСПИТАНИИ ДЕТЕЙ. *INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE* 2022, 2(18), 53-57.
42. Абдурахмонова, М., & Шарипова, К. (2020). Социальная работа с выпускниками детских домов. In *НАУКА СЕГОДНЯ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И ПРАКТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ* (pp. 41-42).
43. Исройлова, С. М. (2018). Понимание" интерактивность" и" интерактивное обучение" в образовательной среде. *Вопросы науки и образования*, (3 (15)), 122-124.

